

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY-JADIDCHILIK HARAKATINING PESHQADAMI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1-bosqich talabasi Xolmuratova Hilola Alisher qizi
TDSHU katta o'qtuvchisi, t.f.b.f.d. PhD V.E.Abirov*

*"Adabiyot xalqing yuragi, xalqning ma'naviyati"
Shavkat Mirziyoyev*

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakatining atoqli namoyandasini Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, ma'rifiy faoliyati, adabiy merosi va millatparvarlik g'oyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Behbudiyning ma'rifikat targ'iboti, zamonaviy maktablar ochish, yangi darsliklar yaratish, teatr faoliyati va matbuot rivoji yo'lidagi sa'y-harakatlari o'z davri uchun ilg'or islohotchi sifatida ko'rsatib beriladi. Uning xalq ogohligi, milliy uyg'onish va istiqlol g'oyalari yoyishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik, ma'rifikat, millatparvarlik, zamonaviy maktab, teatr, "Padarkush", matbuot, hurriyat, Turkiston.

Kirish

XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati millat uyg'onishi, ma'rifikat, milliy madaniyat va siyosiy erkinlik g'oyalalarining targ'ibotchisi sifatida yuzaga chiqqan. Bu harakatning peshqadamlaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lib, u o'zining butun hayotini ilm-ma'rifikat, matbuot va xalq ongini yuksaltirishga bag'ishlagan. Uning faoliyati millatning ogoh bo'lishi, jamiyatning o'zgarishiga asos yaratishda muhim o'rinni tutgan.

Asosiy qism

1. Behbudiyning hayoti va tarbiyasi

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja — mo'tabar imom va qozilik lavozimida xizmat qilgan, xalq orasida obro'-e'tiborga ega shaxs bo'lgan. Behbudiy erta yoshligidanoq diniy va dunyoviy ilmlarga oshno bo'lib, Qur'oni to'liq yod olgan. Bolaligidan otasining millat haqida qilgan duolarini, zulm ostidagi xalq dardini eshitib ulg'aygan.

2. Ma'rifikat va maktab islohotlari

Turkiston xalqi orasida jaholat va savodsizlik keng yoyilgan davrda Behbudiy eng avvalo xalqni o'qitish, ongini yuksaltirish zarurligini tushundi. 1905-yildan

boshlab u yangi usulda ta’lim beruvchi zamonaviy maktablar ochishni yo‘lga qo‘ydi. Samarqanddagi birinchi maktabini o‘z uyida ochdi va unga “Usuli savtiya” nomini berdi. Ushbu maktablarda jismoniy, tabiiy va ijtimoiy fanlar o‘rgatildi. Behbudiylar bu maktablar uchun darsliklar, ayniqsa geografiya faniga oid qo‘llanmalar yozdi.

3. Teatr va ijtimoiy ongni uyg‘otishdagi xizmati

Behbudiylar xalq ongini uyg‘otishning yana bir samarali yo‘li sifatida teatrni tanladi. 1911-yilda Samarqandda teatr ochib, ilk marta “Padarkush” nomli sahna asarini yozdi va namoyish etdi. Bu pyesada savodsizlik va johillik fojiali oqibatlarga olib borishini, ijtimoiy inqiroz insoniyatni qanday tubanlikka yetaklashini ochib berdi. “Padarkush” asari o‘zbek teatr san’atining ilk namunasi sifatida milliy adabiyot va madaniyat tarixida muhim o‘rin egallaydi.

4. Matbuot va kutubxona faoliyati

Behbudiylar jadid matbuoti rivojida ham yetakchi rol o‘ynagan. 1913-yilda “Oyna” gazetasiga asos solib, xalqni milliy o‘zlik, ma’naviyat, dunyo yangiliklaridan xabardor qilishga urindi. U, shuningdek, “Behbudiya” kutubxonasini ochdi. Kutubxona fondi 600 dan ortiq kitob va matbuot nashrlarini o‘z ichiga olgan. Har kuni 100 dan ortiq o‘quvchi undan foydalanardi. Behbudiylar har bir ishi bilan xalqni ma’rifat sari yetaklashga intilgan.

5. Jadidchilik harakatining yakuniy fojiasi

Mahmudxo‘ja Behbudiylar jadidchilik harakatining ko‘pchilik namoyandalari kabi ta’qib ostida qolgan. 1919-yilda safar chog‘ida Qizil Armiya tomonidan otib o‘ldiriladi. Uning shahidligi xalq erki va hurriyat yo‘lida fidoyilik namunasi sifatida tarixda qoladi.

Xulosa

Mahmudxo‘ja Behbudiylar o‘z hayotini butunlay xalqiga, millatiga bag‘ishlagan fidoyi, ma’rifatparvar, millatparast shaxsdir. U yangi maktablar ochdi, sahna asarlari yozdi, matbuot orqali ogohlilik targ‘ibotini olib bordi. Uning faoliyati mustamlaka zulmi ostidagi Turkiston xalqi uchun yangi davr, yangi tafakkur yo‘lini ochdi. Bugungi kunda ham Behbudiyning hayoti va merosi yosh avlodga ibrat maktabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurauf Fitrat. Milliy uyg‘onish tarixidan lavhalar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
2. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Shoniyofov, K. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Fan, 2001.
4. Rahimov, A. Mahmudxo‘ja Behbudiylar hayoti va faoliyati. – Samarqand, 2015.
5. Matbuot materiallari: “Oyna” gazetasi sonlari (1913–1915).